



UDK 94(575.1):314

**Kamola U. BOBOMURODOVA,**  
Qarshi shahar 42-maktab tarix fani o'qituvchisi  
E-mail: kamola024@gmail.com, <https://orcid.org/0009-0007-6640-2845>

A.T.M.U. professori, t.f.d I.Jalilov taqrizi asosida

## QASHQADARYO VOHASIDA DEMOGRAFIK JARAYONLARNING TARIXSHUNOSLIGI VA MANBASHUNOSLIGI (1925–2025)

Аннотация

Ushbu maqolada Qashqadaryo vohasida 1925–2025-yillar asosida kechgan tarixiy-demografik jarayonlarning tarixshunosligi va manbashunosligi tahlili. Trafikda voha aholisining soni, hududiy joylashuvi, tabiiy ko'rish, migratsiya jarayonlari, urbanizatsiya, etnik tarkib hamda ma'muriy-hududiy o'zgarishlarning ilmiy adabiyotlarda yoritilishi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi davr, 1960–1980-yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar hamda mustaqillikdagi demografik jarayonlarning tadqiq etilish jarayonlari.

**Калит сўзлар:** Qashqadaryo vohasi, tarixshunoslik, manbalik, demografiya, aholi, migratsiya, urbanizatsiya, aholi ro'yxati, tarixiy statistika, arxiv hujjatlari.

## ИСТОРИОГРАФИЯ И ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В КАШКАДАРЬНСКОЙ ОБЛАСТИ (1925–2025 гг.)

Аннотация

В данной статье анализируются историография и источниковедение историко-демографических процессов, протекавших в Кашкадарьинском оазисе в 1925–2025 годах. Особое внимание уделяется освещению в научной литературе вопросов численности населения оазиса, его территориального размещения, естественного движения, миграционных процессов, урбанизации, этнического состава, а также административно-территориальных изменений. Рассматриваются процессы исследования периода Второй мировой войны и послевоенных лет, социально-экономических преобразований 1960–1980-х годов, а также демографических процессов в период независимости.

**Ключевые слова:** Кашкадарьинский оазис, историография, источниковедение, демография, население, миграция, урбанизация, перепись населения, историческая статистика, архивные документы.

## HISTORIOGRAPHY AND SOURCE STUDY OF DEMOGRAPHIC PROCESSES IN THE KASHKADARYA OASIS (1925–2025)

Annotation

This article analyzes the historiography and source study of historical and demographic processes that took place in the Kashkadarya oasis between 1925 and 2025. Special attention is paid to the coverage in scientific literature of issues related to the population size of the oasis, its territorial distribution, natural movement, migration processes, urbanization, ethnic composition, and administrative-territorial changes. The processes of researching the World War II and post-war periods, the socio-economic transformations of the 1960s–1980s, and demographic processes during the independence period are also examined.

**Keywords:** Kashkadarya oasis, historiography, source study, demography, population, migration, urbanization, census, historical statistics, archival documents.

**Kirish.** Qashqadaryo vohasi O'zbekistonning tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jihatdan muhim hududlaridan biridir. Vohaning geografik joylashuvi, sug'orma dehqonchilik an'analari, qadimiy shaharlar tizimi, aholining hududiy joylashuvi va turli tarixiy davrlardagi siyosiy-ma'muriy o'zgarishlar uning demografik taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

1925-yildan boshlab Qashqadaryo hududida ma'muriy boshqaruvning qayta tashkil qilinishi, aholini hisobga olish tizimining shakllanishi va statistik ma'lumotlarning muntazam yig'ilishi tarixiy-demografik jarayonlarni ilmiy o'rganish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. 1926-yilgi ma'lumotlarda Qashqadaryo okrugi aholisi qariyb 343,4 ming kishi sifatida qayd etilgan. "Keyingi davrlarda hududning ma'muriy maqomi va chegaralari bir necha marta o'zgargan. Xususan, Qashqadaryo 1938-yilda Buxoro viloyati tarkibiga kiritilgan, 1943-yilda qayta tashkil etilgan, 1960-yilda Surxondaryo viloyatiga qo'shilgan va 1964-yilda yana" [1] mustaqil viloyat sifatida tiklangan.

**Adabiyot tahlili.** Qashqadaryo vohasida 1925–2025-yillar davomida kechgan tarixiy-demografik jarayonlarni o'rganish masalasi turli davrlarda tarixchilar, demograflar, iqtisodchilar va etnograflar tomonidan tadqiq etilgan. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni mazmuni, xronologik chegarasi va metodologik yondashuvlariga ko'ra bir necha guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni sovet davrida yaratilgan demografik va statistik tadqiqotlar tashkil etadi. Ushbu yo'nalishda M.K. Qoraxonov, I.R. Mullajonov, O.B. Otamirzayev, N.M. Fayziyev kabi olimlarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. M.K. Qoraxonovning aholi va demografik rivojlanish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarida O'zbekiston hududidagi aholining soni, tabiiy ko'payishi va ijtimoiy-demografik tarkibi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. I.R. Mullajonovning asarlarida esa O'zbekiston SSR aholisining demografik rivojlanishi, hududiy joylashuvi va ijtimoiy tarkibiga oid muhim ma'lumotlar jamlangan. Ikkinchi guruhga Qashqadaryo vohasining tarixiy-geografik, etnografik va urbanizatsion rivojlanishiga bag'ishlangan tadqiqotlar

kiradi. Jumladan, J.P. Berdiyevning Qashqadaryo vohasi shaharlari, guzarlari, aholining joylashuvi, etnik tarkibi va toponimik ma'lumotlariga bog'ishlangan tadqiqotlari vohaning demografik tarixini uzoq tarixiy jarayonlar bilan bog'liq holda tahlil qilish imkonini beradi. Olimning tadqiqotlarida tarixiy manbalar, toponimik ma'lumotlar va statistik materiallardan kompleks foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Maqolada tarixiylik, xronologik izchillik, qiyosiy-tarixiy tahlil, statistik tahlil, manbalarni tanqidiy o'rganish, retrospektiv yondashuv va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.

Tarixiy-demografik jarayonlarni o'rganishda faqat aholi sonining o'zgarishini qayd etish yetarli emas. Demografik o'zgarishlarning sabablarini aniqlash uchun iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va tabiiy omillarni birgalikda ko'rib chiqish zarur. Shu sababli tadqiqotda demografik ko'rsatkichlar hududning ma'muriy tuzilishi, xo'jalik tizimi, migratsiya jarayonlari va urbanizatsiya bilan bog'liq holda tahlil qilindi. Qashqadaryo tarixiy-demografiyasining tarixshunosligi. Qashqadaryo vohasining tarixini ilmiy jihatdan o'rganish XX asrning birinchi choragidan boshlab yangi bosqichga kirdi. Dastlabki tadqiqotlarda hududning tarixiy-geografik holati, aholi punktlari, xo'jalik faoliyati va ma'muriy tuzilishiga oid ma'lumotlar uchraydi.

1920-yillar Qashqadaryo tarixiy-demografiyasini o'rganish uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki "aynan shu davrda hududda yangi ma'muriy boshqaruv tizimi shakllandi va aholini statistik qayd etish jarayoni yo'lga qo'yila boshladi. 1925-yilgi ma'muriy o'zgarishlar natijasida Qashqadaryo hududi Behbudiy, G'uzor va Shahrisabz kabi ma'muriy birliklarga ajratilgan bo'lib"[2], keyingi rayonlashtirish jarayonlari statistik hisobni takomillashtirishga xizmat qilgan. 1926-yilgi rayonlashtirish materiallari "Qashqadaryo aholisining joylashuvi va tarkibini o'rganishda muhim manbalardan biridir. Ushbu materiallarda aholi punktlari, xo'jaliklar, shahar va qishloq aholisi hamda etnik guruhlarining hududiy taqsimoti haqida ma'lumotlar mavjud"[3].

Sovet davri tarixshunosligida demografik jarayonlar ko'pincha iqtisodiy taraqqiyot, qishloq xo'jaligi, irrigatsiya, sanoatlashtirish va kollektivlashtirish jarayonlari bilan bog'liq holda o'rganilgan. Bunday tadqiqotlarda statistik ma'lumotlardan keng foydalanilgan bo'lsa-da, ularning ayrimlarida davrning siyosiy-mafkuraviy talablari ta'siri mavjudligi sababli manbalarni tanqidiy yondashuv asosida tahlil qilish zarur. Ayniqsa, "1920–1930-yillardagi siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar Qashqadaryo aholisining joylashuvi va turmush tarziga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Sovetlashtirish, kollektivlashtirish, yer-suv munosabatlarining o'zgarishi va xo'jalik tizimining qayta tashkil etilishi demografik jarayonlarning"[4] keyingi yo'nalishlarini belgilagan.

1940–1980-yillarda tarixiy-demografik tadqiqotlar. Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi tiklanish davri Qashqadaryo demografik tarixida alohida bosqichni tashkil qiladi. Aholining tabiiy o'sishi bilan bir qatorda mehnat resurslarining hududlararo harakati, sanoat va qishloq xo'jaligi obyektlarining rivojlanishi aholi joylashuviga ta'sir ko'rsatdi. 1950–1980-yillarda Qashqadaryoda irrigatsiya tizimlarining kengayishi ham demografik jarayonlarning muhim omillaridan biri bo'ldi. Suv xo'jaligi obyektlarining qurilishi yangi aholi punktlarining paydo bo'lishi va mavjud qishloqlarning kengayishiga olib keldi. Qashqadaryo vohasining sug'orilish tarixiga bog'ishlangan tadqiqotlarda

XX asrning 20–80-yillaridagi "irrigatsiya jarayonlari tarixiy-etnografik va toponimik manbalar bilan bog'liq holda o'rganilgan. Demografik tarixshunoslikda 1959, 1970, 1979 va 1989-yillardagi aholi ro'yxatlari muhim statistik baza hisoblanadi"[5]. Ular orqali aholining umumiy soni, shahar va

qishloq aholisi nisbati, yosh-jins tarkibi va ayrim hollarda milliy tarkibidagi o'zgarishlarni kuzatish mumkin. "Mavjud statistik ma'lumotlarga ko'ra, Qashqadaryo hududida XX asrning ikkinchi yarmida aholi sonining sezilarli o'sishi kuzatilgan. Masalan, 1926-yilda qariyb 343,5 ming kishini tashkil qilgan aholi soni 1970-yilga kelib 802 ming kishiga, 1989-yilda esa 1,596 million kishiga yetgan"[6]. Bu raqamlar faqat tabiiy ko'payish bilan izohlanmasligi kerak. Hududning iqtisodiy o'zlashtirilishi, yangi ishlab chiqarish va irrigatsiya obyektlarining tashkil etilishi, ma'muriy-hududiy o'zgarishlar ham mazkur ko'rsatkichlarga ta'sir qilgan.

Mustaqillik davri tarixshunosligida yangi yondashuvlar. 1991-yildan keyingi davrda Qashqadaryo tarixini o'rganishda metodologik jihatdan yangi imkoniyatlar yuzaga keldi. Tarixchilar sovet davri statistikasi va arxiv materiallariga qayta murojaat qilish, ilgari cheklangan yoki bir tomonlama yoritilgan jarayonlarni yangi ilmiy mezonlar asosida baholash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Mustaqillik yillaridagi tadqiqotlarda demografiya masalalari faqat aholi soni bilan chegaralanmay, balki migratsiya, urbanizatsiya, etnik tarkib, ijtimoiy qatlamlar, mehnat resurslari va hududiy rivojlanish bilan bog'liq holda tahlil qilina boshlandi. "Qashqadaryo vohasining tarixiy o'rganilishi bo'yicha yangi tadqiqotlarda arxeologik, yozma, etnografik va zamonaviy ilmiy materiallarni birlashtirish zarurligi ta'kidlanmoqda"[7]. Shuningdek, "Oliy attestatsiya komissiyasi materiallarida Qashqadaryo vohasi aholisi tarkibi, urbanizatsiya va tarixiy geografiyasini yozma manbalar hamda toponimik materiallar asosida o'rganishga"[8] qaratilgan tadqiqotlarning ilmiy natijalari qayd etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi: Qashqadaryo vohasining 1925–2025-yillardagi tarixiy-demografik jarayonlarini tadqiq etishda manbalarni bir necha guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh – statistik manbalar. Bunga aholi ro'yxatlari, statistik yilnomalar, viloyat statistik hisobotlari va demografik ma'lumotlar kiradi. Ushbu manbalar aholi sonining dinamikasi, tug'ilish, o'lim, nikoh, migratsiya va shahar-qishloq aholisi nisbatini aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchi guruh – arxiv hujjatlari. Viloyat va tuman ijroiya qo'mitalari hujjatlari, ma'muriy hisobotlar, xo'jalik materiallari, yer-suv munosabatlariga oid hujjatlar tarixiy-demografik jarayonlarning sabablarini aniqlashda muhimdir.

Uchinchi guruh – davriy matbuot materiallari. Gazeta va jurnallarda aholi turmushi, migratsiya, qishloq xo'jaligi, sanoat, yangi aholi punktlari va ijtimoiy muammolarga oid ko'plab ma'lumotlar mavjud.

To'rtinchi guruh – ilmiy adabiyotlar. Monografiyalar, dissertatsiyalar, maqolalar va ilmiy to'plamlar Qashqadaryo tarixining turli jihatlarini umumlashtirish imkonini beradi.

Beshinchi guruh – etnografik va og'zaki tarix materiallari. Aholining xotiralari, oilaviy tarixlar, mahalliy rivoyatlar va dala tadqiqotlari rasmiy statistik ma'lumotlarda aks etmagan ijtimoiy jarayonlarni aniqlashga yordam beradi.

Oltinchi guruh – zamonaviy elektron statistik ma'lumotlar. Bugungi kunda "Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi demografik ko'rsatkichlar bo'yicha shahar va qishloq aholisi, ko'chib kelganlar, ko'chib ketganlar va boshqa ko'rsatkichlarni muntazam e'lon qilib bormoqda"[9]. Bunday davrlashtirish Qashqadaryoning demografik tarixini faqat statistik ko'rsatkichlar ketma-ketligi sifatida emas, balki siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq tarixiy hodisa sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Xulosa Qashqadaryo vohasining 1925–2025-yillardagi tarixiy-demografik jarayonlari murakkab va ko'p omilli xarakterga ega. Ularni ilmiy jihatdan to'laonli yoritish uchun statistik ma'lumotlarning o'zi yetarli emas. Aholi ro'yxatlari, arxiv hujjatlari, ma'muriy hisobotlar, davriy matbuot, ilmiy

adabiyotlar, etnografik materiallar va zamonaviy elektron statistik bazalarni o‘zaro solishtirish talab etiladi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo tarixiy-demografiyasining tarixshunosligi sovet davrida asosan statistik va iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yoritishga yo‘naltirilgan

bo‘lsa, mustaqillik davrida masalaga kompleks yondashuv kuchaydi. Ayniqsa, migratsiya, urbanizatsiya, etnik tarkib, tarixiy geografiya va aholi joylashuvi masalalarini birgalikda o‘rganish imkoniyatlari kengaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Qashqadaryo viloyati statistik ma’lumotlari.
2. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. Demografiya bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar.
3. Qoraxonov M. Население Узбекистана. – Toshkent, 1965.
4. Ravshanov P. Qarshi tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
5. Qashqadaryo vohasining tarixiy o‘rganilishi: bosqichlar, natijalar va istiqbollar. – 2025.
6. Qashqadaryo vohasining sug‘orilish tarixini o‘rganish muammolari. Axborotnoma, №6, 2020.
7. Qashqadaryo vohasi tarixiy-geografiyasiga oid ilmiy tadqiqotlar.
8. Qashqadaryo viloyati ma’muriy-hududiy rivojlanishiga oid statistik va arxiv materiallari.
9. O‘zbekiston SSR va O‘zbekiston Respublikasi aholi ro‘yxatlari materiallari.
10. Qashqadaryo vohasi aholisi, urbanizatsiyasi va tarixiy geografiyasiga bag‘ishlangan dissertatsiya tadqiqotlari.